

## ТАБИЙ IQLIM ISISHI KELAJAK VA INSONIYATGA TA'SIRI

Óteev Quvonchbek Ordabaevich

Mirzamuratov Saparmurat Atamuratovich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti 2-kurs talabalari

**Annotation:** tabiiy iqlim isishi natijasida insoniyat va umumiy, tabiat oziqa zanjiri uzilishiga va muzliklarning erishi natijasida vujudga keladigan suv toshqini. Iqlim isishini sabablari va global muammolar haqida.

**Kalit so'zlar:** anomal, issiqxona gazlari, atmosfera, qurg'oqchilik.

O'tgan asrga nisbatan insoniyat yashash tarzi shunchalik darajada o'zgardiki, insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, dengiz va yer ekotizimlarining misli ko'rilmagan darajada kamayib borishiyu, yer yuzining turli mintaqalarida qurg'oqchilik, suv toshqinlari kabi bir qator salbiy, holatlar ham yuz berayotganligi barchamizga birdek ayondir. Bir so'z bilan aytganda insonning tabiatga aralashuvi aqlga sig'maydigan darajaga yetishga ulgurdi.

"Ko'pchilik foydalanishga yaroqli suvimiz tugashini bilmaydi, 2030-yilga kelib suvga bo'lgan talab va mavjud bo'lgan suv ta'minoti o'rtasida 40 % tafovut bo'ladi. Suv muammoсини hal qilish uchun bizda bor-yo'g'i 15 yil bor xolos", deydi Jahon iqtisodiy forumining yosh global yetakchisi Mina Guli. Iqlim o'zgarishi keng tarqalayotgan, jadal va tezlashib borayotgan jarayondir. G'arbdan yashovchilar uchun ham sayyoraning isish xavfi endi faqat chekka hududlarga ta'sir qiladigan muammo emas. Dunyoning deyarli barcha qismida istiqomat qilayotgan insonlar iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan hodisalarini o'z tanalarida his qilishmoqda.

Hukumatlararo ekspertlar guruhi Yer ilgari hisob-kitob qilinganidan ko'ra tezroq isib borayotganini ma'lum qilishmoqda. Dunyo bo'yicha o'rtacha harorat 1,1 darajaga ko'tarilgan. Bu esa 2040 yilga borib o'rtacha harorat 1,5 darajaga oshishini bildiradi. Issiq to'lqinlar, kuchli shamollar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va yong'inlar yanada ko'proq sodir bo'la boshladi, muzliklar erishi yanada kuchaydi. Ayniqsa, joriy yilda bu jarayon judayam tezlashganini kuzatishimiz mumkin.

Anomal issiq tufayli Turkiya g'arbi va janubida ham dahshatli yong'inlar yuz berishi natijasida sayyohlik tadbirlari, ekskursiyalar butunlay to'xtatildi. Qishloq xo'jalik maydonlari, fermalar yong'in ichida qolib, chorva mollari nobud bo'ldi. Gretsiyada ham bir necha kundan buyon kuchli o'rmon yong'inlari davom etmoqda. Ofat bir haftadan ortiq vaqt mobaynida havo harorati 40 darajadan yuqori bo'lishi oqibatida sodir bo'lgan. Ayrim hududlarda havo harorati 47 darajagacha ko'tarilgan. 3-7 iyun kunlari Toshkentda uch asrning maksimum harorati kuzatilgani qayd etilgandi. Poytaxtda 5, 7 va 8 iyul kunlari yana rekord darajadagi issiq harorat takrorlandi.

"Iqlim o'zgarishi asoratlariga qarshi kurashda yordamga doir ko'p gaplar bo'ldi, biroq konkret qadamlar qo'yilgani yo'q. Natijada global isish darajasi 1,5-2 darajada turish o'rniغا 2,5-3 darajaga chiqishi kutilmoqda", deydi Jahon metereologiya tashkiloti bosh kotibi Petteri Taalas.

Olimlarga ko'ra, iqlim o'zgarishi issiq to'lqinlar chastotasi va shiddatini allaqachon oshirgan. Ayrim bashoratlarga ko'ra, asr boshidan beri dunyo bo'ylab issiqlik bilan bog'liq holatlardan o'lish sur'ati qariyalar orasida salkam 54 foizga oshib, 2018-yilda 296 mingga yetgan.

"Kelasi 30 yilda sayyora aholisi sonining o'sishi natijasida oziq-ovqatga talab taxminan 50 foizga oshadi, Xitoy va Janubi-sharqiy Osiyoda go'sht iste'moli kuchayadi. Ammo shu bilan bir paytda hosil taxminan 30 foizga kamayadi", - deydi Kviggan. Ob-havoning keskin o'zgarishi qurg'oqchilikning kuchayishi va uzoqroq davom etishiga ham sabab bo'ladi.

Iqlimshunoslarning ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishining asosiy sababi yer yuzasidan chiqadigan uzun to'lqinli radiatsiyani yutib atmosferada issiqlik xona effekti hosil qilayotgan gazlardir. Shu toifaga kiruvchi gazlar "Issiqlik xona gazlari" deb ataladi. Bu jarayonning mohiyati quyidagicha: quyoshdan keladigan radiatsiyaning bir qismi (30 foiz) atmosfera tufayli bulutlar orqali kosmosga qaytadi. 15 foiz atrofidagisi esa, atmosfera qatlamlarida yutiladi, qolgan energiya atmosferadan o'tib yer yuzasiga yetib keladi va uni isitadi.

BMT Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi uni hal etishning ikkita asosiy yo'nalishi belgiladi: atmosferaga issiqlik xona gazlari chiqarilishini kamaytirish hamda kuzatilayotgan va kutilayotgan iqlim o'zgarishlariga moslashish. O'z vaqtida choralar qabul qilmaslik va atmosferada issiqlik xona gazlari miqdorini bundan keyin ham ko'payishi holatida mamlakatlar iqlim o'zgarishi borasidagi harakatlar uchun katta mablag'larni mobilizatsiya qilishlariga to'g'ri keladi.

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun dunyo mamlakatlari tezroq toza yonilg'i manbalariga o'tishi kerak. Kalifornianing Moxave cho'lida qurilayotgan ulkan quyosh batareyalari bir kun kelib 140 ming xonadonni toza energiya bilan ta'minlaydi, deydi AQShning "NRG energiya" kompaniyasi prezidenti Deyvid Kreyn.

Iqlim o'zgarishining falokatli oqibatlaridan saqlanish uchun 2050-yilgacha issiqlik xona gazlari miqdori 40 foizdan 70 foizgacha kamaytirilishi kerak. Energiyani tejash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko'paytirish hamda cho'llashishning oldini olish kabi ishlar bor. Shularni amalga oshirsak iqlim xavfsizligini ta'minlashga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamic. Hisobotdagi statistikaga qaraydigan bo'lsak, boshqa manbalarga qaraganda ko'mir iste'moli tez oshib borayotganiga guvoh bo'lamic. Bu jarayonni ortga qaytarib, aksincha, toza energiya manbalarini rivojlantirishimiz kerak.

Ayni damda BMT mutaxassislari global issiqxona gazlari miqdorini kesuvchi yangi xalqaro kelishuv ustida ishlayapti. Tashkilotning Iqlim isishi i bo'yicha hukumatlararo guruhining Berlinda o'tgan yig'inida masalaga bag'ishlangan yangi hisobot e'lon qilindi. Hujjatdan avvalgi tadqiqotlar asosida iqlim isishining ta'siri va unga qarshi ko'rildigan chora-tadbirlar haqida yangi ma'lumotlar o'rinn olgan.

Iqlim ko'rsatkichlarining yil sayin tobora yomonlashib borayotganini insoniyat. Yerdan shafqatsizlarcha foydalanishni davom ettirayotgani bilan bog'lash mumkin. Ko'pchilik davlatlar tomonidan bu jarayon xavfsizlikka qarshi eng katta tahdid sifatida ko'rilmoxda. Dunyo bo'ylab sodir bo'lgan ayanchli hodisalar ekologik xavfsizlikni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqishga yetarli darajada kuchli turtki berishi kerak. Yo'qsa keyinchalik juda kech bo'lishi mumkin. Biz chiqindilarni ham qayta ishlab chiqarishni ko'proq yo'lga qo'yishimiz kerak. chol zonalarini ham o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, global iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga keladigan ekologik muammolarni barcha davlatlar va insoniyat birlashsagina natijaga erishadi. Shuni unutmasligimiz lozim, biz kelajak avlod uchun musaffo osmon, go'zal tabiat va uning bebaho ne'matlarini bekamu ko'st yetkazish burchimizdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://kun.uz>
2. <https://xs.uz>
3. <https://www.gazeta.uz>
4. D.Yormatova.Ekologiya. Toshkent. 2009.
5. Tuxtaev A.S. "Ekologiya" 1998.
6. Rasulov M. Urto Osie tabiatshunostlik fanlari tarixi. T. «Oqituvchi»,1993.
7. Tuxtaev A.S. va boshqalar Ekologiya xonasini tashkil etish va jih'ozlash.T.,RTM,1998
8. Tuxtaev A.S., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muh'ofaza qilish. T. «Oqituvchi»,1994.
9. Tuxtaev A.S., Xaydarova X.N. SD «Ekologiya assolari va tabiatni muxofaza qilish». Toshkent, 2004
10. Shodimetov Yu.Đ Djtimoiy ekologiyaga kirish. T. «Oqituvchi».1994.
11. R.Tleuov h'a'm basqalar. Uliwma ekologiya h'a'm ta'biyatti qorg'aw. N. Bilim 2005 j